



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**Ibragimov A'lamjon Amrilloevich,
Hamidova Laylo Kamildjonovna**

*Pedagogika fanlari doktori, professor
Sh.Rashidov nomidagi SamDU doktoranti*

RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINI "FLIPPED LEARNING" TEKNOLOGIYASIGA TAYYORLASH IMKONIYATLARI

Annotasiya. Maqolada raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini Flipped Learning (teskari o'qitish) texnologiyasiga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari, metodik imkoniyatlari va amaliy samaradorligi tahlil qilingan. Raqamli platformalar, video-kontent yaratish, interfaol dars dizayni va baholash jarayonida raqamli vositalardan foydalanishning o'qituvchi kompetensiyasiga ta'siri yoritilgan. Eksperiment natijalari Flipped Learning texnologiyasi bo'lajak o'qituvchilarning raqamli, metodik va refleksiv kompetensiyalarida sezilarli o'sish kuzatilganini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: Flipped Learning, teskari o'qitish, raqamli ta'lim, metodik tayyorlik, boshlang'ich ta'lim, raqamli kompetensiya, video-dars dizayni.

OPPORTUNITIES FOR PREPARING FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS FOR THE "FLIPPED LEARNING" TECHNOLOGY IN THE CONTEXT OF DIGITAL EDUCATION

Abstract. This article analyzes the scientific-theoretical foundations, methodological possibilities, and practical effectiveness of preparing future primary school teachers for the Flipped Learning (inverted instruction) technology in the context of digital education. The study highlights the influence of digital platforms, video content creation, interactive lesson design, and the use of digital tools in assessment on the development of teacher competencies. The experimental results demonstrated significant improvement in the digital, methodological, and reflective

competencies of future teachers as a result of implementing the Flipped Learning technology.

Keywords: Flipped Learning, inverted instruction, digital education, methodological preparedness, primary education, digital competence, video lesson design.

ВОЗМОЖНОСТИ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К ТЕХНОЛОГИИ “FLIPPED LEARNING” В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В статье проанализированы научно-теоретические основы, методические возможности и практическая эффективность подготовки будущих учителей начальных классов к технологии Flipped Learning (перевернутого обучения) в условиях цифрового образования. Освещено влияние цифровых платформ, создания видеоконтента, интерактивного дизайна урока и использования цифровых инструментов в процессе оценивания на компетентность учителя. Результаты эксперимента показали значительный рост цифровых, методических и рефлексивных компетенций будущих педагогов при применении технологии Flipped Learning.

Ключевые слова: Flipped Learning, перевернутое обучение, цифровое образование, методическая подготовка, начальное образование, цифровая компетентность, дизайн видеурока.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, o'quv jarayonlarini raqamlashtirish hamda ta'lim sifatini oshirish O'zbekistonning ustuvor rivojlanish yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev: “Ta'lim-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o'qitish metodlari, ta'lim standartlari, darslik va o'quv qo'llanmalarini yangilash zarur”, – deb ta'kidlar ekan, ta'lim sifatiga erishish uchun innovatsion yondashuvlarni joriy etish bo'yicha aniq vazifalarni belgiladi. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarning o'qish jarayonini zamonaviy, raqamli va interaktiv texnologiyalar asosida tashkil etish zaruratini oshiradi[1].

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni, “Pedagog maqomi to'g'risida”gi Qonuni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” va “Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirish, innovatsion ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish va ta'lim jarayonini raqamlashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan[2,3].

Xorijiy olimlar Flipped Learning bo'yicha keng izlanishlar olib borgan. F.V. Alberto, J. Bergmann, A. Sems, Threlkeld, R. Talbert elektronlashgan ta'lim va teskari o'qitishning nazariy asoslarini tadqiq qilgan[4,7]. B. Alvarez, M.F. Alsobaie, D. Berrett, M.S. Jong, H. Morgan, G.R. Overmyer, J.F. Stayer esa Flipped Classroom modelining amaliy jihatlarini, auditoriyada o'qituvchi va talaba rollarining o'zgarishini

o'rganishgan[5]. Aralash ta'lim (Blended Learning) bo'yicha A. Alammay, N. Friensen, D.R. Garrison, C.R. Graham, N. Megahed, B. Tomlinson, R. Castro kabi olimlar samarali aralash o'qitish dasturlarini ishlab chiqish va nazariy asoslarini tadqiq qilgan [6].

Boshlang'ich ta'lim - o'quvchilarda bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda eng muhim bosqich hisoblanadi. Bu bosqichda bola bilim olishga bo'lgan qiziqishini yo'qotmasligi, balki unda ta'limga nisbatan ijobiy munosabat shakllanishi zarur. Shu sababli boshlang'ich ta'limda ta'lim sifatini oshirish va samaradorlikni ta'minlash uchun pedagoglar zamonaviy yondashuvlarni qo'llashlari lozim.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish zamonaviy dunyoda ta'lim sifatini oshirishda katta ahamiyatga ega. Boshlang'ich ta'limda multimedia vositalaridan foydalanish bolalarning diqqatini jalb qilishda samarali hisoblanadi. Elektron darsliklar va o'yinlar bolalarning mavzuni oson va qiziqarli tarzda o'zlashtirishiga yordam beradi. Masalan, "Khan Academy Kids" kabi mobil ilovalar orqali bolalar matematikadan murakkab masalalarni o'rganishlari mumkin. Interaktiv doskalar esa o'quvchilarning darsda faol qatnashish imkoniyatini beradi, bu orqali murakkab mavzularni vizual tarzda tushuntirish osonlashadi. Individual yondashuv har bir bolaning qobiliyatlari va ehtiyojlarini inobatga olishni taqozo qiladi. O'quvchilarning yoshi, qobiliyati va shaxsiy xususiyatlariga mos ravishda ta'lim rejalashtiriladi. Bu usulda o'quvchilarning qobiliyatlarini aniqlash va ularga mos topshiriqlar berish muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, qo'shimcha mashg'ulotlar orqali ortda qolayotgan bolalarga yordam beriladi. Individual yondashuvning asosiy afzalligi shundaki, u har bir bolaning o'z sur'ati bilan o'rganishini ta'minlaydi [8].

Oliy pedagogik ta'lim muassasalari talabalarida kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish va uni rivojlantirish, mazkur jarayonga nisbatan tizimli, kompleks yondashuvni taqozo etadi. Bo'lajak o'qituvchining chuqur bilimga, samarali faoliyat yurita olish mahoratiga ega bo'lishi ma'lum fan asoslari borasida unda yetarli nazariy hamda amaliy bilimlarning, ta'lim jarayonida yangiliklardan unumli foydalanish malakasining qanchalik shakllanganligiga bog'liqdir. Ma'lumki, bugun barcha davlatlar ta'limga imkon qadar ko'p yangilik kiritishga intilmoqda. Bugungi yangiliklar ularga uyushgan, rejali, ommaviy yondashuvni talab etadi. Zero, ta'limdagi yangiliklar kelajak uchun uzoq muddatli investitsiyalardir [9].

Respublikamizda so'ngi yillarda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorligini takomillashtirish, boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayonini axborot texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda tashkil etish, kompetentli mutaxassis va kasbiy kompetensiyani rivojlantirib, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning huquqiy me'yoriy asoslari yaratilmoqda.

Kasbiy faoliyatni amalga oshirishga tayyorlikni rivojlantirish vositasi talabalar tomonidan ilmiy va uslubiy bilimlarni o'zlashtirishdir. Talabalar pedagogika va psixologiya asoslarini, rivojlanish va tarbiya psixologiyasini va umumiy kasbiy davrning boshqa fanlarini o'rganayotganda ushbu kurslarda ushbu tayyorgarlikning asosi qo'yiladi. Ushbu asosiy bilimlarni keyingi o'quv kurslarida qo'llash, kasb-hunar pedagogik ta'lim bakalavriatlarini tayyorlashning asosiy tarkibiy qismi ularning uslubiy tayyorgarligiga aylanadi, natijada o'zlashtirilgan uslubiy kompetentsiyalar yig'indisi hisoblanadi. Ijtimoiy fanlar tizimida "tayyorlik" tushunchasining ontologik ifodasini ko'rib chiqish va

umumlashtirishda ushbu tushuncha nazariy va amaliy yondashuvlarning turli ko‘rinishlarida o‘rganilishini hisobga olish kerak. Shunday qilib, tadqiqotchilar bunday turlarni psixologik, axloqiy-psixologik va oddiygina “*tayyorlik*” deb hisoblashadi.

Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlardagi bir qator maktablarda ham, universitetlarda ham “*Flipped Learning*” texnologiyasidan foydalanish uchun resurslarni ishlab chiqish mexanizmlari tashkil qilingan. Shuning uchun ham ta’limda keng tarqalgan texnologiyalardan foydalanish ayni muddaodir. Bu texnologiyalar ichida chet el ta’lim tizimida keng qo‘llanilib kelinayotgan “*Flipped Learning*” texnologiyasi dunyo davlatlari ichida yuqori reytinglarni egallab kelmoqda.

“*Teskari o‘qitish*” bu oddiy o‘qitish jarayonini quyidagi tarzda “aylantirish” imkonini beruvchi aralash ta’lim shaklidir. Bunda bilim oluvchilar uy vazifasi o‘rniga yangi o‘tilishi lozim bo‘lgan mavzu yuzasidan tayyorlangan materialni tomosha qilishadi. Internetdagi qisqa video ma’ruzalardan o‘quvchi nazariy materiallarni mustaqil ravishda o‘rganadi va dars vaqtida asosiy e’tibor amaliy vazifalarni birgalikda bajarishga qaratiladi. Bu orqali o‘qituvchi va o‘quvchi fan yuzasidan amaliy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishga ko‘proq vaqt sarflash imkoniga ega bo‘ladi.

Quyida biz, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini Flipped Learning texnologiyasiga tayyorlashning asosiy komponentlari, metodik imkoniyatlari va kutilayotgan natijalarini tizimli tarzda jadval tarzida keltirib o‘tdik.

Tayyorlash komponenti	Metodik imkoniyatlar	Kutilayotgan natijalar
Raqamli kompetensiya	Onlayn platformalarda ishlash, axborot-kommunikatsiya vositalari, video va interaktiv kontent yaratish	Talabalar raqamli vositalardan samarali foydalanadi, mustaqil o‘rganish va ta’lim resurslarini boshqarish ko‘nikmalarini egallaydi
Video-dars tayyorlash malakasi	Ssenariy yozish, video materiallar yaratish va montaj qilish, vizual va didaktik materiallarni integratsiya qilish	Talabalar interaktiv darslarni tayyorlashni o‘rganadi, pedagogik ijodiy yondashuv rivojlanadi
Amaliy metodlar va interfaol faoliyat	Guruh ishlari, case-study, loyiha mashg‘ulotlari, rolli o‘yinlar	Auditoriyada faol o‘qitish jarayoni tashkil etiladi, muammolarni hal qilish va muloqot ko‘nikmalari rivojlanadi
Refleksiv va tahliliy kompetensiya	Darslarni tahlil qilish, o‘z-o‘zini baholash, pedagogik qarorlar qabul qilish	Talabalar pedagogik tahlil va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi
Blended learning integratsiyasi	Aralash ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, online va oflayn resurslarni uyg‘unlashtirish	Talabalar innovatsion blended learning uslublarini egallaydi, ta’lim jarayonini moslashtira oladi

Ushbu jadvalda:

-Tayyorlash komponenti ustuni bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli, metodik, amaliy va refleksiv kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan sohalarni belgilaydi.

-Metodik imkoniyatlar ustuni har bir komponentni amalga oshirishda qo‘llaniladigan pedagogik usullar, texnologiyalar va resurslarni yoritadi, masalan, video-dars tayyorlash, interaktiv topshiriqlar, online platformalarda ishlash.

-Kutilayotgan natijalar ustuni har bir komponentni tatbiq etish orqali erishiladigan pedagogik va metodik natijalarni, xususan, raqamli savodxonlik, mustaqil o‘rganish qobiliyati, ijodiy va tahliliy ko‘nikmalarni ko‘rsatadi.

Jadval bo‘lajak o‘qituvchilarning Flipped Learning texnologiyasiga tayyorgarligini tizimli ravishda rejalashtirish va raqamli ta’lim sharoitida metodik kompetensiyalarini rivojlantirishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Shuningdek, raqamli ta’lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini “flipped learning” texnologiyasiga tayyorlash imkoniyatlarining asosiy jihatlarini quyidagicha tavsifladik.

Asosiy jihatlar	Tavsif va ilmiy yangilik
Raqamli vositalarning roli	Flipped Learning metodik tayyorgarlikda raqamli platformalar samarali vosita hisoblanadi, talabalarning mustaqil faoliyatini faollashtiradi
Amaliy mashg‘ulotlar	Video-darslar, interaktiv topshiriqlar va loyiha ishlari kompetensiya rivojlanishida muhim o‘rin tutadi
Pedagogik yangilik	Flipped Learning modeli auditoriya vaqtini amaliy mashg‘ulotlar va tahlilga yo‘naltiradi, pedagogik qaror qabul qilishni rivojlantiradi
Nazariy asos	Tadqiqot natijalari xorijiy olimlar keltirgan flipped classroom va blended learning modelining samaradorligi haqidagi ilmiy xulosalarni tasdiqlaydi

XULOSA. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Flipped Learning texnologiyasi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy va metodik kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Raqamli resurslardan foydalanish, video-darslar yaratish, mustaqil tayyorgarlik va auditoriyada interaktiv faoliyat – metodik tayyorgarlikning asosiy mezonlari sifatida aniqlandi. Tadqiqot shuningdek, flipped learning modelini amaliyotga joriy etish pedagogik ta’lim dasturlarini modernizatsiya qilish va o‘qituvchilarni qayta tayyorlash kurslarida ham samarali qo‘llanishini tasdiqladi. Nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy mashg‘ulotlar va refleksiv tahlil ham metodik tayyorgarlikda muhim ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatildi.

Adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik -har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent - “O‘zbekiston” 2017.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni <https://lex.uz/docs/-5841063>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 8.10.2019 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimi—ni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5847 sonli Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/>
4. Bergmann, J., & Sams, A. Flip Your Classroom: Reach Every Student in Every Class Every Day. ISTE. 2012.
5. Bishop, J., & Verleger, M. The Flipped Classroom: A Survey of the Research. ASEE National Conference Proceedings. 2013.
6. Roehl, A., Reddy, S., & Shannon, G. The flipped classroom: An opportunity to engage millennial students. Journal of Educational Technology, 7(4), 2013. 12–19.
7. Talbert, R. Flipped Learning: A Guide for Higher Education Faculty. Stylus Publishing. 2017.
8. Abdumajitova M. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion usullardan foydalanish. "Science and Education" Scientific Journal / www.openscience.uz January 2025 / Volume 6 Issue 1
9. Насырова Э.Ф., Дроздова А.А. Методическая готовность как составляющая профессиональной компетентности бакалавров профессионально-педагогического образования. Modern Research of Social Problems, №6(50), 2015. 281с